



Tijorat banklarida investitsion faoliyatni tashkil etishning moliyaviy asoslari

**Abduvaliyev Sanjar
Abdurahmanovich**

mustaqil izlanuvchi
s.abduvaliev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida investitsion faoliyatni tashkil etishning moliyaviy asoslari yoritiladi. Shuningdek, banklar investitsion faoliyatini moliyalashtirishda asosiy kapital, mijozlar mablagʻlari, depozitlar hamda qimmatli qogʻozlardan foydalangan holda portfelni diversifikatsiya qilish va risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini tatbiq etishning muhimligi qayd etiladi. Tadqiqot davomida Oʻzbekiston bank tizimida investitsion faoliyatni tashkil etish uchun mavjud moliyaviy manbalar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar:

tijorat banklari, investitsion faoliyat, investitsion siyosat, kapital integratsiyasi, investitsion portfel, moliyaviy barqarorlik.

Annotation

This article highlights the financial foundations for organizing investment activities in commercial banks. It also emphasizes the importance of applying effective mechanisms for portfolio diversification and risk management while financing investment activities through equity capital, customer funds, deposits, and securities. The study analyzes the existing financial resources and their efficiency in organizing investment activities within the banking system of Uzbekistan.

Key words: commercial banks, investment activity, financial-industrial groups, investment policy, capital integration, investment portfolio, financial stability.

Kirish

Maʼlumki, tijorat banklarining investitsion faoliyati – bu ularning investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy instrumentlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va ularni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlarni joylashtirish bilan bogʻliq jarayondir. Banklarning investitsion sohadagi faolligi investitsiya maqsadlarini belgilash va ularga erishishning eng samarali yoʻllarini tanlash bilan uzviy bogʻliq boʻlib, mavjud risk darajasi doirasida aktivlar rentabelligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

Boshqa turdagi investorlardan farqli oʻlaroq, tijorat banklari koʻpincha investitsiyalarni oʻz mablagʻlari hisobidan emas, balki jalb qilingan resurslar orqali amalga oshiradi. Shu sababli, banklar bozor sharoitida bir vaqtning oʻzida ham

investor, ham qarzidor sifatida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda moliya-bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, tijorat banklari tomonidan aholi va biznesga zamonaviy hamda sifatli xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, ularning investitsiya salohiyatini oshirish yo'nalishida izchil ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, banklarning kapital yetarliligini kuchaytirish, resurs bazasini kengaytirish va sohada chet el sarmoyalarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirish maqsadida qo'shimcha huquqiy va institutsional shart-sharoitlar shakllantirilmoqda. Xususan, 2023-yil 19-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan o'zgartishlar (O'RQ-831)ga muvofiq, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2025-yil 1-yanvariga qadar bosqichma-bosqich yuz milliard so'mdan besh yuz milliard so'mgacha oshirilishi belgilandi [1]. Shu bilan birga, norezidentlarga chet el fond bozorlariga joylashtirilgan aksiyalarni sotib olish huquqi berilib, banklar aksiyalarini sotib olish bo'yicha cheklovlar qisman bekor qilinmoqda. Bu islohotlar banklarni kapitallashtirish darajasini oshirishga, resurs bazasini kengaytirishga va bank sektoriga chet el investitsiyalarini jalb etish imkoniyatlarini yaratadi.

Investitsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun tijorat banklari avvalo risklarni baholash va boshqarish mexanizmlarini yaratishi, loyihaning moliyaviy samaradorligi, rentabellik ko'rsatkichlari, kapital tarkibi va likvidlik darajasini tahlil qilishi lozim. Shu bilan birga, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish orqali xavflarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Bu banklar uchun likvidlikni boshqarish masalasini alohida muhim qiladi: ular aktivlar va passivlarni muddatlar, hajm va foiz stavkalari kesimida mutanosib boshqarishga majbur bo'ladi. Natijada, ushbu choratadbirlar tijorat banklariga investitsiya faoliyatini kengaytirish, bank likvidligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar sharhi

J. Makkonell fikriga ko'ra, banklar portfelni turli moliyaviy instrumentlar bo'yicha diversifikatsiya qilsa, makroiqtisodiy shoklarga nisbatan barqarorlikni oshirish va uzoq muddatli likvidlikni ta'minlash mumkin [2].

F. Xayekning ta'kidlashicha, banklar investitsion faoliyatda bozor mexanizmlarini hurmat qilishi va kapitallarni samarali yo'naltirishi lozim, aks holda resurslar iqtisodiyotda samarali ishlatilmaydi [3].

H. Abulqosimovning fikriga ko'ra, investitsion faoliyat muvaffaqiyati bankning moliyaviy instrumentlar bo'yicha bilim darajasi va risklarni boshqarish tizimining samaradorligiga bog'liq bo'lib, resurs bazasini kengaytirish va chet el investitsiyalarini jalb qilish muhim hisoblanadi [4].

M. Lapusta bank investitsiyalari asosan depozitlar va qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirilishini, shuningdek, uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish va portfelni diversifikatsiya qilishda ushbu resurslardan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [5].

U. G'afurovning ta'kidlashicha esa, tijorat banklari investitsion faoliyatni moliyalashtirishda nafaqat o'z kapitali, balki mijozlar mablag'larini ham qo'llashi, shuningdek, portfelni diversifikatsiya qilish va risklarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishi zarur [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, hamda iqtisodiy-statistik kabi usullardan tarzda foydalanildi. Ushbu yondashuv tijorat banklari investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbaalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Banklar investitsion faoliyatni moliyalashtirishda turli moliyaviy instrumentlardan foydalanadi. Ular qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, aksiyalar, ijara va kredit shartnomalari orqali kapitallarni yo'naltiradi. Bu vositalar yordamida banklar o'z mablag'larini samarali boshqaradi va investitsion risklarni taqsimlaydi.

1-jadval

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari

№	Moliyalashtirish manbai	Tavsif	Investitsion faoliyat bilan bog'liqligi
1	Depozitlar	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan banklarga joylashtirilgan mablag'lar	Banklar depozit mablag'larini kreditlash, investitsiya portfeli yaratish va diversifikatsiya qilish uchun ishlatadi
2	Bankning o'z kapitali	Ustav kapitali va qayta investitsiya qilingan daromad	Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda barqaror va xavfsiz manba sifatida xizmat qiladi
3	Qimmatli qog'ozlar chiqarish	Aksiyalar va obligatsiyalar orqali mablag' jalb qilish	Uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish va portfel diversifikatsiyasi uchun ishlatiladi
4	Qarz mablag'lari	Boshqa banklar yoki moliya institutlaridan olingan qarz	Katta hajmdagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini beradi, lekin xarajati yuqori
5	Chet el sarmoyalari va xorijiy kreditlar	Xorijiy investorlar va moliya institutlaridan jalb qilingan mablag'lar	Banklarga yangi loyihalarni moliyalashtirish, kapitalni oshirish va global bozorga chiqish imkonini beradi
6	Ijara (leasing) va moliyaviy kreditlardan qaytarilgan mablag'lar	Oldingi investitsiyalardan tushgan daromad va to'lovlar	Yana yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishda depozitlar va bankning o'z kapitali barqaror va asosiy manba sifatida ishlatiladi, qimmatli qog'ozlar chiqarish va qarz mablag'lari uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish imkonini

beradi, chet el sarmoyalari esa yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, ijara va kreditlardan qaytarilgan mablag'lar esa resurslarni samarali aylantirishga xizmat qiladi; turli manbalarni birlashtirib ishlatish banklarga risklarni kamaytirish, likvidlikni ta'minlash va investitsion portfelni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pgina mamlakatlarda tijorat banklari investitsiya faoliyatini asosan mijozlardan jalb etilgan muddatli va jamg'arma depozitlari hisobidan moliyalaydi. Bu holatning bir nechta sabablari mavjud. Avvalo, bank kapitalini faoliyatni moliyalashtirish manbai sifatida jalb qilish qimmat resurs hisoblanadi. Shuningdek, banklar tabiati bo'yicha aholi va korxonalarining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini depozit shaklida qabul qilish va ularni kredit hamda investitsiyalarga yo'naltirish bilan shug'ullanadigan tijorat institutlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, banklararo kreditlar ham arzon resurs emas — ulardan foydalanish bank xarajatlarini ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, tijorat banklari transaksion depozitlardan shartnoma tuzmasdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish huquqiga ega emas.

Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda esa banklar transaksion depozitlarni resurs sifatida ishlatish amaliyoti kuzatiladi. Biroq bu holat depozit bazasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va likvidlik risklarini kuchaytirishi mumkin. Sababi, bunday depozitlar passiv hisoblanib, har qanday vaqtda mijoz tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Shu sababli rivojlangan davlatlar amaliyotida transaksion depozitlar resurs sifatida qaralmaydi va ular bo'yicha odatda foiz ham to'lanmaydi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlarda bank resurslarining asosiy qismini mijoz mablag'lari tashkil qiladi. Masalan, Finlyandiya va Italiyada jami bank passivlarining 30 foizdan ortiq qismi, Yaponiya hamda Isroilda esa qariyb 80 foizi jismoniy va yuridik shaxslar mablag'lariga to'g'ri keladi.

Taraqqiy etgan davlatlarda moliya bozorining yuqori darajada shakllanganligi sababli tijorat banklari chiqaradigan qimmatli qog'ozlarning savdosidan tushgan mablag'lar ularning resurs bazasida salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, bunday mablag'lar ko'pincha banklarning uzoq muddatli investitsiya operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashda asosiy manba vazifasini bajaradi. Shu bois rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar bank faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tijorat banklari qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalar ulushi Fransiyada 20,8 foiz, Germaniyada 18,6 foiz, Italiyada 24,6 foiz, Buyuk Britaniyada 9 foiz, AQShda 4,8 foiz, Belgiya 7,7 foiz va Yaponiyada 12,5 foizni tashkil etadi.

Banklarning investitsion faoliyati va uzoq muddatli kreditlar taqdim etish imkoniyati, eng avvalo, ularning resurs bazasining yetarliligiga bog'liq. Milliy bank tizimida resurs bazasining asosiy qismini kapital tashkil etsa, keyingi muhim manba sifatida turli depozit mablag'lari xizmat qiladi.

So'nggi yillarda tijorat banklari resurs bazasi barqaror o'sish sur'atini namoyon etmoqda. Xususan, 2020 yil bilan taqqoslaganda, 2024 yilda jami depozitlar hajmi 308,6 trln so'mga yetgan bo'lib, to'rt yil ichida qariyb 194 trln so'mga ko'paygan. Bunday o'sish, avvalo, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga

bo'lgan ishonchi ortayotganligi hamda depozit foiz stavkalari raqobatbardosh daromad keltirayotgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, tijorat banklari kapital hajmi ham sezilarli darajada o'sgan. Masalan, 2024 yilda ularning umumiy kapitali 114,8 trln so'mga yetib, 2020 yilga nisbatan qariyb ikki baravar oshgan. Bu holat bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

Tijorat banklari depozit va kapital hajmining o'zgarishi (mlrd. so'm) [7]

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2020-yil	2020-yil	2020-yil	2020-yil
Depozitlar	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
Shundan:					
davlat ulushi mavjud banklar	82 461	104 248	135 535	124 358	154 511
boshqa banklar	32 286	51 942	81 203	117 329	154 181
Kapital	58 351	70 918	79 565	97 079	114 792
Shundan:					
davlat ulushi mavjud banklar	48 995	57 695	61 919	63 239	70 175
boshqa banklar	9 356	13 223	17 646	33 840	44 617

2024-yil yakuniga ko'ra, mamlakat bank tizimida davlat ulushi mavjud yirik tijorat banklari – O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank, Xalq banki, Biznesni rivojlantirish banki, Mikrokreditbank, Aloqa bank hamda Turonbankning ulushi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jami depozitlar hajmining 50,1 foizi va kapitalning 61,1 foizi aynan ushbu moliyaviy muassasalar hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, ularning ulushiga bank tizimi umumiy aktivlarining 65 foizi hamda jami kredit portfelining 69 foizi to'g'ri kelmoqda.

2-jadval

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida (foizda) [7]

Bank nomi	Aktiv	Kredit	Kapital	Depozit
Jami	100	100	100	100
Davlat ulushi mavjud banklar	65,4	68,8	61,1	50,1
Boshqa banklar	34,6	31,2	38,9	49,9

Shu bilan birga, xususiy tijorat banklari (27 ta) jami depozitlarning 49,9 foizini va kapitalning 38,9 foizini ta'minladi. Mazkur raqamlardan kelib chiqib aytish mumkinki, xususiy banklarda resurs bazasining nisbatan cheklanganligi ularning investitsion faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklab qo'yimoqda. Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil ichida tijorat banklari depozitlar hajmi barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Biroq, ushbu jarayonda depozitlar tarkibida uzoq muddatli depozitlarning salmoqli

ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan uzoq muddatli depozitlar bank resurs bazasini barqaror va ishonchli holda mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'ini depozit turlari bo'yicha tarkibini ko'radigan bo'lsak 2025 yil 1 yanvar holatida jami depozitlarning 34 foizi talab qilib olinguncha depozitlarga to'g'ri kelgan. Xalqaro moliya institutlari ekspertlarining fikriga ko'ra banklar jami depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi o'ttiz foizdan kam bo'lishi tavsiya etilgan bo'lib, bu holat banklarning uzoq muddatli resurs bazasining mustahkamligini ta'minlash hamda ularning kreditlash bilan bog'liq faoliyatini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

3-jadval

Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'i (turlari bo'yicha) (mlrd. so'm) [7]

Ko'rsatkichlar	Jami	Shu jumladan		
		talab qilib olinguncha	jamg'arma	muddatli
01.01.2022-y.	156 190	69 208	13 746	73 236
01.01.2023-y.	216 738	100 683	23 290	92 765
01.01.2024-y.	241 687	88 036	24 051	129 599
01.01.2025-y.	308 692	104 887	29 248	174 557

Tijorat banklari investitsion faoliyatini rivojlantirish jarayonida bu faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi yana muhim jihatlardan biri ularning kapital bazasi barqarorligi hisoblanadi.

4-jadval

Bank tizimi jami kapitali hajmining o'zgarishi [7]

Ko'rsatkichlar	2021		2022		2021		2022		2025	
	mlrd. so'm	ulushi	mlrd. so'm	ulushi	mlrd. so'm	ulushi	mlrd. so'm	ulushi	mlrd. so'm	ulushi
Ustav kapitali	44 656	76,5	54 760	77,2	59 857	75,2	68 643	70,7	83666	72,9
Qo'shimcha kapital	435	0,7	675	1,0	997	1,3	1 339	1,4	1464	1,3
Zaxira kapitali	5 206	8,9	8 452	11,9	7 321	9,2	11 153	11,5	13067	11,4
Taqsimlanmagan foyda	8 055	13,8	7 030	9,9	11 391	14,3	15 945	16,4	16596	14,5
Jami kapital	58 351	100	70 918	100	79 565	100	97 079	100	114792	100

2024-yilda bank tizimining jami kapitali hajmi 18 foizga oshib, 115 trln so'mga, ustav kapitali hajmi 22 foizga o'sib, qariyb 84 trln so'mga yetdi. Regulyativ kapital hajmi 18 foizga oshib, 124,8 trln so'mni va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar 19 foizga ko'payib, 719 trln so'mni tashkil qildi. Kapital monandligi ko'rsatkichi 17,4 foizni tashkil etib (minimal talab 13%), o'tgan yil darajasida (17,5%) saqlanib qoldi. Bu holatni, tijorat banklarining investitsion maqsadlarda kredit ajratish bilan bog'liq salohiyatining ortganligi bilan izohlash mumkin.

2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda banklarning jami kapitali sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda: 2021-yilda 58,35 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 114,79 trln. so'mga yetgan. Bu kapital o'sishi banklarning investitsiya salohiyatini oshirishiga zamin yaratadi.

Ustav kapitalining ulushi bo'yicha o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, umumiy kapitaldagi ulushi 2021-yilda 76,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 72,9 foizga pasaygan. Bu esa ustav kapitalining nominal hajmi ortsa-da, boshqa kapital turlarining (masalan, taqsimlanmagan foyda va zaxira kapitali) nisbatan tezroq o'sayotganini bildiradi. Ustav kapitali bankning asosiy moliyaviy tayanchi bo'lib, u investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2024-yillar davomida tijorat banklari sonida ma'lum o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, 2021-yilda 33 ta bank faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 36 taga yetgani mamlakat bank tizimida rivojlanish jarayoni faollashganini ko'rsatadi.

Jami kapital ko'rsatkichlari ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2021-yilda tijorat banklari jami kapitali 70,9 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 114,8 trln. so'mni tashkil etgan. Bu esa uch yil ichida jami kapital qariyb 44 trln. so'mga ko'payganini anglatadi. Ustav kapitali ko'rsatkichlari ham izchil o'sishga ega bo'lgan. 2021 yilda ustav kapitali 54,7 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 59,8 trln. so'mga yetgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich keskin oshib, 2023-yilda 68,6 trln. so'm, 2024 yilda esa 83,6 trln. so'mni tashkil etgan. Ustav kapitalining jami kapitaldagi salmog'i yuqori darajada saqlanib qolgani banklar resurs bazasining barqarorligi va ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Taqsimlanmagan foydaning o'sishi, ya'ni 2021-yildagi 8,06 trln. so'mdan 2025-yilda 16,6 trln. so'mga yetgani, banklarning ichki moliyaviy resurslari ortib borayotganini anglatadi. Bu foyda banklar tomonidan qayta investitsiyalarga yo'naltirilishi mumkin. Ayniqsa, bu foyda innovatsion texnologiyalar, raqamli xizmatlar va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga qaratilgan loyihalarga sarflanishi mumkin.

Zaxira kapitalining ham o'sishi banklarning risklarga bardoshlilikini oshiradi, bu esa investitsiyaviy faoliyatda ishonchni kuchaytiradi. 2021-yilda 5,2 trln. so'm bo'lgan zaxira kapitali 2025-yilga kelib 13 trln. so'mga yaqinlashgan. Bu banklarning yo'qotishlarga qarshi moliyaviy buferga ega bo'lishini anglatadi.

Banklarning kapital tuzilmasidagi barqaror va muvozanatli o'sish ularning investitsiya faoliyatini yanada faollashtirish imkonini beradi. Moliyaviy resurslar hajmining ortishi va ularning samarali boshqarilishi orqali banklar real sektorga yo'naltirilgan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok eta oladi.

Umuman olganda tijorat banklari jamlanma balansi va investitsion faoliyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Investitsion qarorlar bank aktivlarining tarkibi, likvidlik darajasi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Shu sababli, banklar investitsiya siyosatini ishlab chiqishda riskni diversifikatsiya qilish, likvidlikni ta'minlash va kapital yetarliligini saqlash prinsiplariga amal qilishlari lozim. Bu nafaqat alohida bankning, balki butun bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Investitsion faoliyatning jadal rivojlanishi bank balansining likvidlik darajasiga ta'sir etadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar yoki ko'chmas mulkka sarmoya kiritish orqali bank uzoq muddatli aktivlarni ko'paytirsa, bu likvid aktivlar ulushining kamayishiga sabab bo'ladi. Bu holat qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyatini cheklashi mumkin, lekin uzoq muddatda yuqori foyda olish ehtimolini oshiradi. Shuning uchun tijorat banklari investitsion faoliyat va likvidlik o'rtasida muvozanatni saqlashi lozim.

Tijorat banklarining jamlanma balansi uning moliyaviy barqarorligini va investitsiya faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi, chunki u loyihalar va aktivlarni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qarz va o'z mablag'lari hajmi va tarkibini aks ettiradi. Balans tuzilmasi qanchalik barqaror va kapitallashtirilgan bo'lsa (yuqori o'z kapitali, aktiv va passivlarni samarali boshqarish), bankning uzoq muddatli investitsiyalar uchun imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar mamlakat moliyaviy tizimining asosiy tayanchi hisoblanib, pul mablag'larini saqlovchilardan ularni investitsiya qiluvchilarga yetkazib beruvchi asosiy kanal vazifasini bajaradi. Iqtisodiyotga sarmoyalarni jalb etish zarurati esa bank investitsiyalarini uzoq muddatga faol ravishda jalb qilish uchun ob'ektiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni. 2019-yil 6-noyabr.
2. Makkonnell, J. Bank Investment Management and Risk Diversification. New York: Financial Times Press, 2018.
3. Hayek, F. The Use of Knowledge in Society. American Economic Review, 1945, Vol. 35, No. 4, pp. 519–530.
4. Abulqosimov, H.P. Tijorat banklarining investitsion faoliyati va risklarni boshqarish. Tashkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti, 2020.
5. Lapusta, M.G. Investitsiya portfeli va bank faoliyatining samaradorligi. Moscow: Finansy i Kredit, 2017.
6. G'afurov, U.V. Bank resurslari va investitsion imkoniyatlar. Tashkent: Toshkent moliya instituti nashriyoti, 2019.
7. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sahifasi